



# “TISU IJTIMOIIY FANLARI VA INNOVATSION PEDAGOGIKA”

## ILMIY JURNALI

“TISU Ijtimoiy fanlari va innovatsion pedagogika” jurnali – Respublikadagi ijtimoiy fanlar, pedagogika, psixologiya, sotsiologiya, falsafa va tarix yo’nalishlarida izlanish olib borayotgan olimlar, doktorantlar va tadqiqotchilar, Oliy ta’lim muassasalari professor-o’qituvchilari, ilmiy izlanuvchilar hamda magistrantlar, maktab va texnikumlarda faoliyat yuritayotgan o’qituvchilar, metodistlar va amaliyotchi pedagoglar, ta’lim sohasida innovatsion yondashuvlarni joriy etishga qiziquvchi mutaxassislarning ilmiy salohiyatini namoyon etuvchi maqolalari e’lon qilinadi.



**Muassis:**  
TERMIZ IQTISODIYOT VA  
SERVIS UNIVERSITETI

**TISU TIBBIYOT INNOVATSIYASI ILMIY  
JURNALI**

**Bosh muharrir:**  
Sattarov Abdusamat  
Umurqulovich

**Bosh muharrir o'rinbosari:**  
Qobulov Eshbolta Atamuratovich

**Mas'ul kotib:**  
Allamuratov Shuxrat Ashurovich

**Dizayner:**  
Meyliqulov Shahboz  
Xolmamatovich

**Jurnal har chorakda bir marotaba  
chop etiladi**

Jurnal O'zbekiston Respublikasi  
Prezidenti Administratsiyasi  
huzuridagi Axborot va ommaviy  
kommunikatsiyalar agentligining  
2023-yil 1-martdagi  
№ 066379- raqamli guvohnomasi  
bilan ro'yxatga olingan.

Jurnal "PRINTWELL" MCHJ  
bosmaxonasida chop etildi.  
Manzil: Toshkent shahri  
Muqimiy ko'chasi, 170/14

Bosishga ruxsat etildi:  
27.11. 2025.

Qog'oz bichimi: 60x84 1/8  
"Times New Roman" garnitiruasi.  
Ofset bosma.  
Ofset bosma usulida bosildi.  
Shartli bosma tabog'i: 11.  
Adadi 10 nusxa.  
Bahosi kelishilgan narxda.  
Buyurtma № 1.

Jurnalning elektron shakli bilan  
<https://scientific.tues.uz>  
web saytida tanishish mumkin.

**Tahririyat manzili:**  
Surxondaryo viloyati,  
Termiz sh., "Yulduz" MFY,  
"Ibn Sino" ko'chasi.

## TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI:

Bosh muharrir, Qabulov Eshbolta Atamuratovich –  
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti  
Tarix kafedrası professori, tarix fanlari doktori,  
Termiz, O'zbekiston. eshbolta\_qabulov@tues.uz

Bosh muharrir o'rinbosari – Salohiddinova Navro'za -  
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti  
Pedagogika kafedrası dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi,  
Termiz, O'zbekiston. navruza\_salohiddinova@tues.uz

Tarix fanlari muharriri Tursunov Nurillo Narzullayevich -  
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti  
Tarix kafedrası professori v.b, tarix fanlari doktori,  
Termiz, O'zbekiston. nurillo\_tursunov@tues.uz

Ijtimoiy fanlar muharriri, Tursunov Muxiddin Boltayevich –  
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti  
Ijtimoiy fanlar kafedrası dotsenti, sotsiologiya fanlari nomzodi,  
Termiz, O'zbekiston. muxiddin\_tursunov@tues.uz

Jismoniy madaniyat fanlari muharriri – Begimqulov Oltiboy  
Jo'rayevich - Termiz iqtisodiyot va servis universiteti  
Jismoniy madaniyat kafedrası professori,  
Termiz, O'zbekiston. oltiboy\_begimqulov@tues.uz

Pedagogika fanlari muharriri – Narboshova Maqsuda Achilovna -  
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti  
Pedagogika kafedrası dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi,  
Termiz, O'zbekiston. maqsuda\_narboshova@tues.uz

Rus tili va adabiyoti muharriri – Sattarova Elena Anatolevna –  
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti  
Rus tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, filologiya fanlari  
falsafa doktori, Termiz, O'zbekiston. elena\_sattarova@tues.uz

Ingliz filologiyasi muharriri – Urolova Oysuluv Poyon qizi -  
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti  
Ingliz tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, filologiya fanlari  
falsafa doktori, Termiz, O'zbekiston. oysuluv\_urolova@tues.uz

# MUNDARIJA

## **G. E. TURAYEVA**

Bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy tarbiyalashda o'quv jarayonini innovatsion texnologiyalar asosida rivojlantirish.....3

## **G.T. JUMAYEVA**

Kasbiy kompetentlikni rivojlantirishda pedagogik yondashuv asoslari.....6

## **O.Ch.XOLOV**

Yosh avlodni tarbiyalashda aksiologiyaning ahamiyati.....10

## **N.M. SALOXITDINOVA**

Zamonaviy ta'lim sharoitida xorijiy tajriba va steam ta'limi.....14

## **B.X. ABRAYEV, I.N. XAYRULLAYEV**

Matritsalar va odam anatomiyasida fanlararo integratsiya va funksional o'xshashliklar haqida tizimli yondashuv.....17

## **M.Y.MADIEVA**

Translation strategies and linguistic adaptation of English brand names in Russian and Uzbek contexts.....22

## **S.Q. ESHBOYEVA**

4K yondashuv samarali ta'lim kafolati.....26

## **N.N. SHODIYEVA**

Erta nikoh qurishning oila mustahkamligiga ta'siri.....30

## **K.Sh.OLTIBOYEVA**

Shaxs intellektual rivojlanishi - pedagogik muammo sifatida.....34

## **U.A. TASHBAYEVA**

Talabalarda emotsional intellektni rivojlantirish orqali kommunikativ tayyorgarligini takomillashtirish texnologiyalari.....37

## **M.Y.MADIEVA**

Brend nomlarining medialingvistik tahlili: o'zbek tilidagi milliy leksik birliklar asosida....41

## **R.D. NORQOBILOVA**

Pedagogik konfliktlarda gender omilining roli.....47

## **G'.A. MAMARAJABOV**

Surxon vohasi amaliy san'atning rivojlanishida hunarmandlar faoliyati.....50

## **F.A. ABDURAZZOQOV**

Mamlakatda maktabgacha yoshdagi bolalarning kuchli zilzila bilan bog'liq favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakatlanishga tayyorlashning ta'sirchan va samarali mexanizmlari.....54

## **A.Ch. QOSIMOV**

Surxon vohasida an'anaviy qo'ychilik va ularning vohaga xos xususiyatlari.....58

## **M.X. FAYZULLAYEVA**

Tarixiy yozma manbalar va ilmiy adabiyotlar qimmatli manba sifatida.....62

## **S.A. JABBOROVA**

Tarixiy yozma manbalar va ilmiy adabiyotlar qimmatli manba sifatida.....67

## **F. YORMATOV**

Mamlakatimizda nuroniylarni ijtimoiy himoyalashning ustivor yo'nalishlari .....70

## **R. R. KHAMRAEVA**

Linguistic Creativity in Science Fiction Translation: from Asimov's Robots to Modern AI Narratives.....76

## **I.H. JUMAYEV**

"Qutadg'u bilig" dostonida insoniy nuqsonlarning badiiy ifodasi.....80

## **N.A. UMAROVA**

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy kompetentli shakillantirish.....84

## **I.B. QARSHIYEVA**

Talabalarga jadidchilar asarlaridagi ma'rifiy qadriyatlarini o'rgatishning pedagogik shart-sharoitlari.....89





Termiz iqtisodiyot va servis universiteti  
Tarix fanlari nomzodi, dotsent  
**Faxriddin Yormatov**  
E-mail: faxriddin\_yormatov@tues.uz

## MAMLAKATIMIZDA NURONIYLARNI IJTIMOY HIMOYALASHNING USTIVOR YO'NALISHLARI

### ANNOTATSIYA

Maqolada mamlakatimizda aholini ijtimoiy himoyalash borasida olib borilayotgan islohotlar o'zining ijobiy natijalarini berayotganligi, ayniqsa yohi ulug' nuroniylarni ijtimoiy himoyalashga alohida diqqat va e'tibor qaratilib, tizimni rivojlantirish bo'icha o'ziga xos chora-tadbirlar ishlab chiqilayotganligi hamda nuroniylarni ijtimoiy himoyalashning eng muhim ustivor yo'nalishlari masalalari ilmiy jihatdan tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** Mamlakat, O'zbekiston, Prezident, Mehnat faxriysi, Keksalar haftaligi, Qaror, Nuroniylar, Ijtimoiy himoya, Yolg'iz keksalar, Mehnat faxriylari, Tibbiy ko'rik, Turmush, Qashqadaryo, Namangan, Surxondaryo, Reabilitatsiya.

### АННОТАЦИЯ

В статье научно анализируются вопросы о том, что реформы, проводимые в нашей стране в области социальной защиты населения, дают свои положительные результаты, особое внимание уделяется социальной защите пожилых людей, разрабатываются специальные меры по развитию системы, а также важнейшие приоритетные направления социальной защиты пожилых людей.

**Ключевые слова:** Страна, Узбекистан, Президент, Ветеран труда, Неделя Пожилых людей, Постановление, Пожилые люди, Социальная защита, Одиноким пожилым людям, Ветераны труда, Медицинский осмотр, Быт, Кашкадарья, Наманган, Сурхандарья, Реабилитация.

### ABSTRACT

The article scientifically analyzes the positive outcomes of the reforms carried out in our country in the field of social protection of the population. Special attention is paid to ensuring social protection for elderly and respected citizens, with unique measures being developed to improve this system. The study also examines the most important and priority directions of social protection for the elderly.

**Keywords:** Country, Uzbekistan, President, Veteran of Labor, Week of the Elderly, Resolution, Elderly People, Social Protection, Lonely Seniors, Labor Veterans, Medical Examination, Lifestyle, Kashkadarya, Namangan, Surkhandarya, Rehabilitation.

**Kirish.** Xalqimizda yoshi ulug' keksalarga hurmat va ehtirom ko'rsatish hamda ularni har tomonlama ulug'lash azaldan qon-qonimizga singib ketgan oliy qadriyat hisoblanadi.

Mustaqillikning ilk yillaridan aholini kuchli ijtimoiy himoyalash davlat siyosatining bosh ustivor yo'nalishlaridan biri hisoblanib, o'tgan vaqt ichida mazkur yo'nalishda muhim ijobiy o'zgarishlar amalga oshirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev Prezidentlik lavozimida ish faoliyatini boshlagan ilk davrdanoq bu masalalarga yanada alohida e'tibor qaratildi va tizimni rivojlantirishga bo'yicha o'ziga xos chora-tadbirlar ishlab chiqildi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Keksalar va nogironlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada

takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2016 yil 28 dekabrda PQ-2705-son qarori[1]ning qabul qilinishi ham muhim ahamiyat kasb etdi. Farmonga muvofiq 2017 yilning 1 yanvaridan boshlab har bir tuman (shahar) bo'limida bittadan, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar bo'limlarida uchtadan, markaziy apparatda 8 nafar xodim hisobidan "Nuroniy" jamg'armasi shtat birliklari ta'minotini budjetdan moliyalashtirishga qabul qilib, "Nuroniy" jamg'armasi pensioner xodimlariga pensiyalarni 100 foiz miqdorda to'lash, budjet mablag'lari hisobiga ta'minlanayotgan "Nuroniy" jamg'armasi xodimlariga "Navro'z" va "Mustaqillik" bayramlariga mukofotlar "Nuroniy" jamg'armasi bo'limlarida lavozim okladining 50 foizi miqdorida va markaziy

apparatda lavozim okladining 100 foizi miqdorida to'lash, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "1941-1945 yillardagi urush va mehnat fronti faxriylarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2014 yil 13 oktabrdagi PF-4658-sonli Farmoniga muvofiq, 1941-1945 yillardagi urush qatnashchilariga har yili sanatoriylarda sog'lomlashtirish kursini olish o'rniga yo'llanma qiymatiga teng kompensatsiya olish huquqini berish hamda budjet mablag'lari hisobiga bepul tibbiy-ijtimoiy yordam ko'rsatish tizimi doirasida keksalar, nogironlar, urush va mehnat faxriylarini sog'lomlashtirishni ta'minlash uchun 2017-2019 yillarda Buxoro, Qashqadaryo va Xorazm viloyatlarida sanatoriya qurish kabi ijobiy ishlar amalga oshirildi.

Bizga ma'lumki, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan bu ishlar mohiyati haqida Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyev alohida gapirib, "Bu islohotlarning asosiy maqsadi – aholi uchun munosib hayot darajasi va sifatini ta'minlashdir. Eng asosiy ustuvor vazifa "Inson manfaatlari hamma narsadan ustun" degan olijanob g'oyani izchillik bilan hayotga tatbiq etishdan iborat.

Bugun hayotimizning o'zi Konstitutsiyamizda ifodasini topgan eng asosiy maqsad – inson manfaatlarini har tomonlama ta'minlash masalasini dolzarb vazifa qilib qo'yimoqda. Inson manfaatlarini ta'minlash uchun esa avvalo odamlar bilan, xalq bilan muloqot qilish, ularning dardu tashvishlari, orzu-niyatlari, hayotiy muammo va ehtiyojlarini yaxshi bilish kerak. Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak va bu haqiqatni avvalo barcha bo'g'indagi rahbarlar yaxshi tushunib olishi zarur"[2] degan edi.

"2017-2021 yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi"[3]ning to'rtinchi yo'nalishi "Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari" deb nomlangan bo'lib, unda aholining real pul daromadlarini va xarid qobiliyatini oshirish, kam ta'minlangan oilalar sonini va aholining daromadlari bo'yicha farqlanish darajasini yanada kamaytirish va pensionerlar, nogiron, yolg'iz keksalar, aholining boshqa ehtiyojmand toifalarining to'laqonli hayot faoliyatini ta'minlash uchun ularga tibbiy-ijtimoiy yordam ko'rsatish tizimini yanada rivojlantirish va takomillashtirish va shu kabi ko'plab masalalarning o'rin.

Bundan tashqari ushbu tizimdagi ishlarni

takomillashtirish hamda nuroniylarni yanada har tomonlama qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish borasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mehnat faxriysi" ko'krak nishonini ta'sis etish to'g'risida" 2017 yil 14 iyuldagi PQ-3133-son qarori[4] asosida o'sha yilning o'zida 959 nafar nuroniy "Mehnat faxriysi" ko'krak nishoni bilan taqdirlandi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Keksa avlod vakillarining jamiyatdagi o'rnini va ijtimoiy faolligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2019 yil 27 sentabrdagi 816-son, "Keksalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" qarori[5] asosida "1 oktabr – Xalqaro keksalar kuni"ni mamlakatimizda munosib nishonlash maqsadida har yili oktabr oyining birinchi haftasi "Keksalar haftaligi" etib belgilandi. 2020 yil 9 iyunda qabul qilingan "Faxriy murabbiy" ordenini ta'sis etish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni asosida 2858 nafar "Faxriy murabbiy" ordeniga nomzod nuroniylar ro'yxati shakllantirildi. Keksa avlod vakillarining salomatliklarini asrash, xususan, ijtimoiy himoyaga muhtoj, yakka-yolg'iz yashovchi nuroniylarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida qilinayotgan ishlar haqida gapirar ekanmiz, 2020 yilning birinchi yarmidayoq 228 ming 564 nafar nuroniy bepul chuqur tibbiy ko'rikdan o'tkazilib, 8678 nafar nuroniyning sanatoriylarda sog'liqlarini tiklash tashkil etildiganini alohida qayd etish zarur. Shuningdek, 179 ming 240 nafar nuroniyning yurtimizdagi diqqatga sazovor turli maskanlariga sayohat qilishlariga sharoit yaratildi.

Davlatimizning ijtimoiy himoyalash dasturlari asosida keksa avlod vakillarining 1620 nafariga nogironlar aravachasi, 1532 nafariga eshitish moslamasi, 1600 nafariga hassa (qo'ltiq tayoq), 400 nafariga ko'zoynak, 3005 nafariga esa boshqa reabilitatsiya vositalari berildi. Shu bilan birga ehtiyojmand oilalarda yashayotgan keksalarning xonadonlarida hashar o'tkazilib, ularga doimiy ravishda oziq-ovqat mahsulotlari hamda dori-darmon vositalari yetkazib berilmoqda.

Jahon Sog'liqni saqlash tashkiloti tavsiyalariga ko'ra 45-59 yosh o'rta yosh, 60-74 keksa yosh, 75-89 yosh qariyalar, 90-yosh-uzoq umr ko'ruvchilar deb hisoblanadi.

Respublika bo'yicha 2021 yil 1 yanvar holatiga ko'ra 65 yoshdan oshganlar 1 517 034 (shundan erkaklar-665 086, ayollar-851 948) nafarni yoki



umumiy aholining 4,4 foizni tashkil etadi (umumiy aholi soni -34 558 991).

Statistik ma'lumotlarga ko'ra 2020 yilda O'zbekiston Respublikasida o'rtacha umr ko'rish davomiyligi 73,4 (erkaklar-71,2, ayollar-75,5) yoshni tashkil qiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 25 martdagi "Keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, "Saxovat" va "Muruvvat" internat uylari tizimini yanada rivojlantirish to'g'risida"gi PF-6195-son Farmoniga muvofiq joriy yilning 5-25 aprel kunlari "Saxovat" va "Muruvvat" internat uylarida yashovchi 8870 nafar qariya, keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslar malakali tor soha mutaxassislari ishtirokida chuqurlashtirilgan tibbiy ko'riklardan o'tkazildi. Tibbiy ko'rik natijasida bemor deb topilganlarning 2724 nafari ambulator sharoitida, 152 nafari viloyat, tuman va respublika muassasalarida statsionar sharoitida hamda 112 nafari ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlarida sog'lomlashtirildi.

Mamlakatimizda Nuroniylarni qo'llab-quvvatlash sohada amalga oshirilgan islohotlar haqida gap ketar ekan, quyidagi ijobiy o'zgarishlarni ham alohida e'tirof etish maqsadga muvofiq.

-Sohaga oid 20 ta qonun hujjati, shu jumladan 1 ta qonun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 3 ta Farmon va Qarori qabul qilindi, 16 dan ortiq normativ-huquqiy hujjatlar takomillashtirildi.

– keksalarni qo'llab-quvvatlash, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish sohasida vakolatli davlat boshqaruvi organi – Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi tashkil etildi;

– Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri hamda tumanlar va shaharlarda Nuroniylar jamoatchilik kengashlari tashkil etildi;

– mahallalarda keksalar ishlari bo'yicha jamoatchilik asosida faoliyat yuritadigan rais maslahatchisi lavozimi kiritildi;

-Mahallalarda "Keksalar maslahati" guruhleri va "Buvijonlar maktabi" jamoatchilik kengashlari tashkil etildi.

– 1941-1945 yillardagi urush qatnashchilariga sanatoriylarda har yili yo'llanmaning o'rtacha narxiga teng ravishda kompensatsiya olish huquqi berildi;

– Kasaba uyushmalari Federatsiyasi mablag'larining 30 foizini pensionerlarni, birinchi navbatda urush va mehnat fronti faxriylarini sog'lomlashtirishga yo'naltirish yo'lga qo'yildi;

– "Vatan himoyachilari kuni" va "Navro'z" bayramlarida "Nuroniy" jamg'armasi hisobidan urush qatnashchilari va mehnat fronti faxriylariga moddiy yordam ko'rsatish tizimi joriy etildi;

– "Faxriy murabbiy" ordeni va "Mehnat faxriysi" ko'krak nishoni ta'sis etildi hamda shu davrga qadar 947 nafar nuroniy "Mehnat faxriysi" ko'krak nishoni ibilan taqdirlandi;

– 23818 nafar yakka-yolg'iz qariyalar va nogironlarga jami moddiy yordam hamda "Mehribonlik", "Saxovat" va "Muruvvat" uylarida yashovchilarga muruvvat yordamlarini muntazam ko'rsatish tizimi yo'lga qo'yildi;

– 493 mingga yaqin faxriylarning diqqatga sazovor joylarga, muqaddas qadamjolarga ziyorat va sayohatlari uyushtirildi;

– 4213 nafar ikkinchi jahon urushi qatnashchilariga jami 22 mlrd so'mga yaqin miqdorda mukofot pullari va esdalik sovg'alari tantanali ravishda topshirildi;

– 72 nafari urush qatnashchilariga Haj safariga borish bilan bog'liq bo'lgan 1,3 mlrd. so'm to'lab berildi;

– "Dori-darmon" AK hisobidan 125 mln. so'mlik dori-darmonlar urush qatnashchilari, yolg'iz pensioner va nogironlarga bepul yetkazib berildi.

– 126 ta tuman (shahar)da keksa avlod vakillari uchun "Nuroniylar maskanlari" tashkil etildi;

– "Nuroniy" jamg'armasining barcha xodimlariga pensiyalarni 100 foiz miqdorida to'lash tizimi yo'lga qo'yildi;

– "Keksalik gashti" jurnali ta'sis etildi. Ushbu jurnal va "Nuroniy" gazetasi muntazam chop etilishi yo'lga qo'yildi.

2020 yil davlatimiz rahbari Oliy Majlisga Murojaatnomasida keksalar, jumladan, yolg'iz keksalar bilan ishlash, ularni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha yaxlit va ta'sirchan tizim yaratish zarurligi, bu toifa uchun ajratilayotgan ijtimoiy to'lovlar miqdorini qayta ko'rib chiqish kerakligini alohida ta'kidlagan bo'lsa, joriy yil "Agar katta avlodning bilimi va tajribasini, uzoqni ko'ra olish fazilatlarini yoshlarimizdagi g'ayrat-shijoat, mardlik va fidoyilik bilan birlashtira olsak, ko'zlagan marralarga albatta yetamiz. Nuroniy otaxon va onaxonlarimizni har tomonlama qo'llab-quvvatlashimiz ham qarz, ham farzdir"[6], degan qat'iy chorlovlari bilan ularga bo'lgan yuksak ehtiromini namoyon etdi. Shuningdek, respublika "Nuroniy" jamg'armasining moliyaviy imkoniyatlari yanada kengaytirilishi, buning uchun ushbu

jamg'armaga budjetdan 100 milliard so'm ajratilishi, o'zgalor parvarishiga muhtoj bo'lgan 16 mingdan ziyod keksalarga yordam berish, to'lovlar miqdorini oshirish, ko'rsatiladigan ijtimoiy xizmatlar ko'lamini kengaytirish vazifalari ham belgilab berildi.

O'zbekiston aholisining qariyb o'ndan birinigina tashkil etayotgan keksa avlod vakillarining har biri nafaqat moddiy, balki ma'nan, ruhan ham qo'llab-quvvatlanishga munosibdir. Ma'lumot o'rnida aytish joizki, 2020-yil so'ngida yurtimizda pensiya va nafaqa oluvchilarning umumiy soni 3 million 824 mingni tashkil etgan bo'lsa, ularning 2 849 118 nafari yoshga doir pensiya oluvchilar, 402 nafari Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari, 15 nafari esa mehnat fronti faxriylaridir.

2020 yil mazkur oylik ilk bor mamlakatimiz bo'ylab yuksak saviyada tashkil etilib, unga jami 56 ming 228 nafardan ortiq keksalar qamrab olindi. Ularning 10 151 nafari kam ta'minlangan, ijtimoiy himoyaga muhtoj nuroniylar ekani esa tadbirning ahamiyatini yanada oshirdi[7].

Shu o'rinda aytish joizki, o'tgan yili Kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashi va "Nuroniylar" jamg'armasi tomonidan jami 22845 nafar keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslar, shu jumladan, urush va mehnat fronti faxriylari sog'lomlashtirildi.

Korxonalar, tashkilot va muassasalarda mehnat qilayotgan 3508 nafar pensionerlar, shuningdek, kasaba uyushmasi a'zolarining pensioner ota-onalari imtiyozli, 300 nafari bepul sog'lomlashtirildi.

Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligining "Nuroniylar" jamg'armasi Respublika Boshqaruviga taqdim etgan ma'lumotga ko'ra, 12 ming 876 nafar keksa nuroniylar turli sanatoriyalar va sihatgohlarda sog'liqlarini tiklagan, 66 ming nafari bepul chuqur tibbiy ko'rikdan o'tkazilgan.

Prezidentimizning 2016-yil 28-dekabrda "Keksalar va nogironlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha choratadbirlar to'g'risida"gi qarori asosida esa "Nuroniylar" jamg'armasi Respublika Boshqaruvining murojaatiga muvofiq, "Dori-darmon" aksiyadorlik kompaniyasi tomonidan jamg'armaga taqdim qilingan 1860 dona dori-darmon aptekchalari Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida istiqomat qilib turgan nogironlar va yolg'iz keksalar, Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va

mehnat fronti faxriylariga yetkazib berildi.

Kasaba uyushmalari tashkilotlari tomonidan 240 nafar yolg'iz keksa va nogironlarga 57,8 million so'mlik kommunal xizmatlar uchun to'lovlari qisman qoplab berildi. Respublikamizdagi "Saxovat" va "Muruvvat" uylarida istiqomat qilayotgan qariyalarga, nogiron hamda yolg'iz keksalarga kasaba uyushmalari hisobidan 75,6 million so'mlik xayriya ishlari amalga oshirildi.

2020-yili Vatanimiz davlat mustaqilligining 29 yilligi munosabati bilan iqtisodiyot, ishlab chiqarish, ilm-fan, madaniyat, ta'lim, sog'liqni saqlash, yurisprudensiya va boshqa sohalardagi uzoq yillik halol mehnatlari uchun hamda ishlamasdan, jamiyatda mustahkam oilani saqlab qolgan onalardan iborat jami 393 nafar faxriylar, jumladan, ularning 144 nafari I-darajali, 124 nafari II-darajali, 125 nafari III-darajali "Mehnat faxriysi" ko'krak nishoni bilan taqdirlandi. Taqdirlangan faxriylarga jami 211 million 404 ming so'm miqdoridagi mukofot pullari jamg'arma hisobidan topshirildi. 2021 yil 31 avgustda O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 30 yillik bayramiga bag'ishlangan tantanali marosimda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev "Vatanimiz mustaqilligi biz uchun kuch-qudrat va ilhom manbai, taraqqiyot va farovonlik asosi" nomli ma'ruzasida, "Mamlakatimizda olib borilayotgan jadal va keng ko'lamlil islohotlar yurtimizda yangi davrni- yangi O'zbekiston davrini boshlab berdi"[8] deya alohida ta'kidladilar.

Inson qadrini ulug'lash va shifokor mehnatini qadrlash" tamoyili asosida"[9] har yili ming nafar bemor shifokorlar, ayniqsa sohada bir umr mehnat qilgan faxriylarga yuqori texnologik operatsiyalar davlat hisobidan bepul o'tkaziladi. Mahallalarda ma'naviy muhitni yanada yaxshilashning eng samarali tizimi sifatida yo'lga qo'yilgan "Har bir nuroniylar – besh nafar yoshga murabbiy" tamoyili asosida 30 ming 428 nuroniylar 147 ming 186 nafar tarbiyasi og'ir, ma'naviy ko'makka muhtoj va uyushmagan yoshga birlashtirildi[10]. Nuroniylar hayotiy tajribasidan unumli foydalanib, o'tkazilgan madaniy ma'rifiy tadbirlar natijasida 155 mingga yaqin profilaktik hisobda turgan yoshlarning sog'lom turmush tarziga qaytishiga, 22 mingdan ortiq oilalar ajrimining oldi olinishiga hamda 3 mingdan ortiq notinch oilalarning yarashtirilishiga erishildi [11].

2022 yilda mamlakatimizda istiqomat qilgan 35,5 milliondan ortiq aholining 3 million 162



ming nafarini (8,9 foiz) keksa avlod vakillari tashkil etdi. Ulardan 221 nafari ikkinchi jahon urushi qatnashchilari, 9965 nafari mehnat fronti ishtirokchilari, 22 745 nafari esa o'zgarlar parvarishiga muhtoj yolg'iz keksalardir. og'ir turmush sharoitida yashayotgan, kam ta'minlangan 32 862 nafar keksalarning ruyxatlari shakllantirilib, ularga shifokorlarning retseptlariga asosan 3 oylik ehtiyojdan kelib chiqib, dori vositalari, protez-ortopediya moslamalarini olib berish hamda jarrohlik amaliyotining xarajatlarini davlat tomonidan qoplash yo'lga qo'yildi. "Hech kim mehr-e'tibordan chetda qolmasin" shiori ostida 22 745 nafar o'zgarlar parvarishiga muhtoj bo'lgan yakka-yolg'iz va yolg'iz yashovchi keksalarning 3565 nafariga dori-darmon vositalari, 8266 nafariga oziq-ovqat mahsulotlari, 3785 nafariga moddiy yordam berildi, 168 nafarining uy-joylari ta'mirlandi.

Mahallalarda "Bir nuroniy o'n yoshga mas'ul" tamoyili asosida 16 ming 224 nafar nuroniylar tarbiyasi og'ir, ma'naviy ko'makka muhtoj va ishsiz 154 ming 218 nafar yoshga birlashtirildi. Nuroniy tarbiyasi asosida farzand tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi 2 ming 650 nafar otanonadan 1 ming 964 nafari, profilaktik hisobdan chiqarildi. 3 ming 214 ta notinch oila yarastirildi. Shuningdek, nuroniylar tomonidan 486 nafar yoshlarning o'qishlarini tiklashda, 29 ming 117 nafarining ishga joylashishlariga ko'maklashildi. Ijtimoiy yordamga muhtoj kam ta'minlangan oilalar, yolg'iz keksalar, pensionerlar va nogironlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida mas'ul vazirlik va idoralar hamkorligi yo'lga qo'yildi.

100 yoshga kirgan 518 nafar nuroniy, 221 nafar urush qatnashchisi, 9 ming 165 nafar mehnat fronti ishtirokchisi, 22 ming 764 nafar yolg'iz keksa holidan xabar olindi.

O'zgarlar parvarishiga muhtoj 19 ming 980 nafar keksaning sanatoriylarda sog'lig'i tiklandi. 853 ming 361 nafar nuroniy bepul chuqur tibbiy ko'rikdan o'tkazildi.

2 516 nafar fuqaroga nogironlar aravachasi, 1 949 nafariga eshinish moslamasi, 2 593 nafariga hassa (qo'ltiq tayoq), 1 477 nafariga ko'zoynak, 5 786 nafariga boshqa reabilitatsiya vositalari berildi[12].

Jumladan, 2022 yilda 965 ming nafar nuroniy bepul tibbiy ko'rikdan o'tkazildi, 23 ming nafar nuroniy dori-darmon va oziq-ovqat bilan ta'minlandi, 21 mingdan ortiq nuroniylar

sanatoriylarda sog'lomlashtirildi, 19 ming nafari reabilitatsiya texnik vositalari bilan ta'minlandi, 118 ming nafar nuroniylarga boshqa turdagi moddiy yordamlar ko'rsatildi, 221 nafar ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va yakka yolg'iz keksalarning uy-joylari ta'mirlab berildi, 1 milliondan ortiq nuroniylar uchun mamlakatimiz bo'ylab sayohatlar tashkil etildi. Respublikamizda bugungi kunda 3 mln. 389 ming 666 nafar nuroniylar istiqomat qiladi. Ularning 1 mln. 270 ming 057 nafari erkaklarni, 2 mln. 119 ming 609 nafari ayollarni tashkil etadi. Nuroniyning 89 nafari Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari,

4 ming 230 nafari front orti mehnat faxriylaridan iborat. Shuningdek, nuroniylarning 441 nafari 100 yoshdan oshgan, 39 ming

470 nafari 1-guruh nogironligi bo'lgan, 16 ming 308 nafari o'zgarlar parvarishiga muhtoj bo'lgan yolg'iz keksalar va yolg'iz yashaydigan keksalardan iborat. 2 ming 300 nafari Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash markazlari (sobiq "Saxovat") va "Muruvvat" uylarida istiqomat qiluvchi nuroniylardan iborat. "Nuroniy" jamgarmasi tomonidan

Respublikamizdagi mavjud 8 ta Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash markazlarida istiqomat qilayotgan 700 nafar va 16 ta "Muruvvat" internat uylarida istiqomat qilayotgan 1 ming 600 nafar nuroniylarning holidan xabar olinib, ularga sovg'alar va ijtimoiy yordamlar tashkil qilinib, 2 044 nafar o'zgarlar parvarishiga muhtoj bo'lgan yolg'iz keksalar sanatoriylarda bepul sog'lomlashtirildi.

Keksa avlod vakillariga tibbiy xizmatlar ko'rsatish doirasini yanada kengaytirish maqsadida yurtimizning barcha hududlarida istiqomat qilayotgan 3 mln. 389 ming 666 nafar nuroniylar bepul chuqurlashtirilgan tibbiy tekshiruvdan o'tkazildi. Keksalar uchun respublikamizdagi diqqatga sazovor joylarga sayyohlik safarlari tashkil etilib, 1 mln. 384 ming 785 nafar nuroniylarning mamlakatimizdagi tarixiy obidalar, ziyoratgohlar, diqqatga sazovor joylarga sayohatlari, 209 ming 918 nafar nuroniylarning teatr va muzeylarga bepul tashriflari uyushtirildi.

Ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlari, ayniqsa, Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari, mehnat fronti faxriylari, o'zgarlar parvarishiga muhtoj bo'lgan yakka-yolg'iz keksalar va yolg'iz yashaydigan hamda kam ta'minlangan oilalarda yashaydigan 81 ming 348 nafar keksalar holidan

xabar olinib, uy-joy sharoitlarini yaxshilash, tomorqalari va uylarida yoshlar bilan hasharlar o'tkazish, shuningdek boshqa turli xayriya tadbirlari amalga oshirildi<sup>[13]</sup>.

Hukumat qarori bilan 2024 yil 27 dekabr kuni "Faol nuroniylarni kambag'al oilalarga biriktirish hamda mahallada sog'lom turmush tarzi va ijtimoiy-ma'naviy muhitni shakllantirishga jalb etish tartibi to'g'risida"<sup>[14]</sup> gi nizom tasdiqlandi. Nizom faol nuroniylarni kambag'al oilalarga biriktirish hamda mahallada sog'lom turmush tarzi va ijtimoiy-ma'naviy muhitni shakllantirishga jalb etish, shuningdek, kambag'al oila farzandlariga ta'lim olishlari uchun o'quv jihozlari va qurollari, sport kiyimlarini xarid qilish, keksa fuqarolarning sport tadbirlarida ishtirok etishi bilan bog'liq xarajatlarni qoplab berish tartibini belgilaydi.

Belgilangan tartibda tanlab olingan uch nafardan faol nuroniylarga yashab turgan joyi bo'yicha 5 tadan kambag'al oila olti oy muddatga biriktiriladi. Faol nuroniylar biriktirilgan oilalar bilan ishlashda mahalla yettiligi bilan o'zaro hamkorlik qiladi.

"Nuroniylar" jamg'armasi va tanlab olingan faol nuroniylar o'rtasida faol nuroniylarni rag'batlantirish maqsadida fuqarolik-huquqiy tushuntirish shartnomalar rasmiylashtiriladi.

Tanlab olingan faol nuroniylar ularga yuklangan vazifalarni bajarishlari uchun "Nuroniylar" jamg'armasi tomonidan mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining 50 foizi miqdorida rag'batlantiruvchi to'lovlar ularning roziligiga ko'ra bank plastik kartalariga to'lab beriladi. Muhtaram Prezidentimiz ta'kidlaganidek "Keksalarni e'zozlash, Ularga hurmat-ehtirom ko'rsatish xalqimizga xos ezgu fazilatlar. Mamlakatimizda yoshi ulug' insonlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, turmush sharoitlarini yanada yaxshilash, salomatligini mustahkamlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Zotan, nuroniylarni e'zozlagan kam bo'lmaydi".

Umuman olganda xulosa sifatida shuni alohida takidlash lozimki, mamlakatimizda o'tgan davr mobaynida yoshi ulug' tabarruk nuroniylarimizni har tomonlama ijtimoiy himoyalash va qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor berildi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. "O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami", 2017 yil 9 yanvar, 1-son, 10-modda.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi. 2017 yil 15 yanvar.
3. 2017 yil 7 fevralda qabul qilingan 2017—2021 yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi.
4. (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 11.03.2023 y., 07/23/92/0137-son) 12. Yangi O'zbekiston" gazetasi 2022 yil 2 iyun.
5. O'zbekiston faxriylarining ijtimoiy faoliyatini qo'llab-quvvatlash "Nuroniylar" jamg'armasi tomonidan 2024 yilda amalga oshirilgan ishlar bo'yicha hisoboti.
6. <https://daryo.uz/2024/12/31/faol-nuroniylarni-kambagal-oilalarga-biriktirish-tartibi-belgilandi/>